


2018 yil yanvar- mart oylarida amalga oshirilgan qurilish ishlari

2018 yilning yanvar – mart oylarida Samarqand viloyatida 509,7 mlrd so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan 2017 yilning shu davriga nisbatan 106,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 17,5 mlrd so'mlik yoki 128,0 foizni tashkil qildi.


Samarqand shahri va Nurobod tumanida o'tgan yilning mos davriga nisbatan yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish - montaj ishlari hajmini ko'payishi kuzatildi.

Shu jumladan, Samarqand shahrida, qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 8,6 mlrd. so'm, Nurobod tumanida 8,1 mlrd. so'mni yoki 4,3 va 2,6 marta ortiq foizni tashkil etdi.




Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar tomonidan bjarilgan qurilish ishlari hajmi, qurilish ishlarining 58,5 % ni tashkil etdi. Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun mikrofirmalar qurish, avtomobil yo'llarini yangi qurilishi, rekonstruksiya va ta'mirlash, ijtimoiy soha ob'yektlari (maktablar, maktabgacha ta'lif muassasalari), na'munaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqda.

2018 yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlarda qurilish ishlarining umumiyligi hajmidagi ulushi



2018- yilning yanvar- mart oylari uchun shahar, tumanlar kesimida qurilish ishlaringin hajmiga nisbatan o'sish sur'ati



Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 496,3 mld. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlarning hajmi 97,4 foizni tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,9 foiz punktga kamaydi.

Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 2,6 mld. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlarning hajmi 0,5 foizni tashkil qildi.

